LIDERLIK PSIXOLOGIYASI KO'RINISHLARI. MUVAFFAQIYATLI LIDER SIRLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
Ozbek tili va adabiyot yo'nalishi
25.5-guruh talabalari
Atajanova Sevinch Yangiboyevna
Jalolova Ruxsora
Yuldosheva Umida
Xurramova Gulsevar
Paxritdinova Moxinur
Ilmiy rahbar:Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi **Mirzaraximova Gulnora Ikromovna**

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda liderlik psixologiyada uchrayotgan ko'rinishlarni yoritib berishga hamda muvaffaqiyatli liderlikning o'ziga xos xususiyatlari va sirlarini ochishni tahlil qiladi.

Annotation: This article analyzes the manifestations of leadership in modern psychology and aims to highlight its various forms. It also examines the distinctive features of successful leadership and explores the key principles and secrets that contribute to effective leadership.

Аннотация:В данной статье анализируются проявления лидерства в современной психологии и освещаются его различные формы. Также рассматриваются характерные особенности успешного лидерства и раскрываются основные принципы и «секреты», способствующие эффективному лидерству.

Kalit so'zlar: rahbar, lider, yetakchi, optimistic ruh, liderlik psixologiyasi
Keywords:leader, manager, leading figure, optimistic spirit, leadership psychology
Ключевые слова: руководитель, лидер, ведущий, оптимистический дух, психология лидерства

Bugungi kunning eng zo'r yetakchisi,lideri, bugungi kunning eng zo'r fikrlovchisi hamdir
"Robin Sharma"

Zamonaviy jamiyatda liderlik tushunchasi inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Liderlik nafaqat boshqaruv jarayoni, balki insonning psixologik xususiyatlari, odatlari va kundalik xulq-atvori bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, James Clear o'zining" Atom odatlar" asarida kichik odatlar insonning katta natijalarga erishishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [1, 23-bet]. Bu esa liderlik sifatlari ham asta-sekin shakllanishini ko'rsatadi.

Liderlik — bu shaxsning boshqalarga ta'sir ko'rsatish orqali ularni umumiy maqsad sari yo'naltirish qobiliyatidir. Bu jarayonda insonning emotsional holati va boshqalarni tushunish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizda "rahbar" , "lider", "yetakchi", "sardor' kabi tushunchalar mavjud. Aslida, ularning barchasi bir ma'noni anglatadi hamda bir maqsad yo'lida xizmat qiladi.Shuning uchun rahbar va lider o'rtasida tafovutni aniqlsh mushkul. Ularning vazifasi ham, mas'uliyati ham, xususiyatlari ham teng.

Liderni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy tomonlaridan biri – bu liderning, eng avvalo, o'ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo'lgan ishonchi. Buyuk allomalarimiz aytgandek, o'z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo'shadi. Lider har doim o'ziga yuklatilgan vazifada boshqalar bilan maslahat qilishi va har doim faqat o'zini yakka hokim sifatida emas, balki boshqalarga ham vazifalar bo'lib berishi hamda ularga yordam berishi zarur.

Liderning o'ziga xos muhim jihatlaridan biri – bu optimistic ruhda fikr yuritishda , ya'ni har bir ko'zlagan maqsadni faqat yaxshi tomonlarini o'ylab ish ko'rishdadir. Yan u to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ham ega hisoblanadi. Ba'zilar bir qarorni uzoq muddat o'ylab qabul qilishsa, lider faqat bir marta va aniq qaror qabul qiladi .

"Buyuk odamlar shunday odamlarki, ular boshqalarni ham buyuk bo'la olishlarini his qilishga yordam berishadi."

Mark Tven

Liderning yana bir muhim jihatlaridan biri shuku, lider har doim minipuliyatsiya qobiliyatiga ham ega bo'lishadi, ya'ni ular boshqalarga ta,sir o'tkaza olishadi. Bu ularning har doim boshqalardan ustun bo'lishida katta qadam sifatida qaraladi. Minipuliyatsiya sirlari bu o'z – o'zidan paydo bo'ladigan hodisa emas, balki o'z ustida ishlash va tinimsiz mehnat natijasida hosil bo'ladigan boshqalarga ta'sir o'tkaza oladigan psixologik sirlardan sanaladi.

Ba'zi vaqtlarda faqatgina ta'sir o'tkazishning o'zi yetmasligi mumkin. Qachonki biror g'alabaga erishilsa, lider, eng avvalo, o'z yonidagilarni rag'batlantirishni unutmaslik kerak.Umuman olganda, rag'batlantirish ham minipulatsiyaning bir turi hisoblanadi.Ya'ni inson psixikasiga ko'ra, kichik rag'batlantirish yoki shunchaki maqtov ham uni sizga tobe qilib qo'yishi mumkin.Lekin haqiqiy lider o'z vaqtida jazo berishni ham bilmog'i lozim. Chunki aynan jazo berish liderning lider ekanligini asoslab beradi,ya'ni bu orqali uning ishlarini qandat tarzda olib borishini tahlil qilish , xatolarini to'g'irlashga va qayta qilmaslikka undaydi.

Liderlikning namoyon bo'lishi ko'p jihatdan guruhning rivojlanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. I.V.Peskova ta'kidlashicha, guruh tuzilmasi guruh a'zolarining mavqei va maqomining o'ziga xos iyerarxiyasidan iborat. Bundan tashqari, lider adolatli va halol bo'lishi kerak. U barcha jamoa a'zolariga teng munosabatda bo'ladi va qarorlarni adolat asosida qabul qiladi. Zamonaviy sharoitda lider moslashuvchan bo'lishi, tez o'zgarayotgan muhitga moslasha olishi va muammolarga samarali yechim topa bilishi zarur. Umuman olganda, liderlik tug'ma qobiliyat emas, balki o'rganish va tajriba orqali shakllanadigan muhim ko'nikmadir.

Liderlik — bu nafaqat boshqarish, balki odamlarning ishonchini qozonish va ularni yagona maqsad yo'lida birlashtira olish san'atidir. Lider har doim oldinda yuradi, lekin u boshqalardan ajralib ketmaydi, aksincha jamoa bilan birga harakat qiladi. U vaziyatni to'g'ri baholay oladi, muhim qarorlarni o'z vaqtida qabul qiladi va qiyinchiliklardan qo'rqmaydi.

Liderning muhim jihatlaridan biri — bu o'ziga va jamoasiga ishonchdir. U har bir insonning imkoniyatlarini ko'ra oladi va ularni to'g'ri yo'naltiradi. Shu bilan birga, lider faqat buyruq beruvchi emas, balki o'rnak bo'luvchi shaxs hisoblanadi. Uning har bir harakati boshqalar uchun namuna bo'ladi.

Yaxshi lider har doim o'rganishga intiladi, chunki bilim va tajriba uning kuchidir. U muvaffaqiyatga erishganda kamtar bo'lib qoladi, mag'lubiyatga uchraganda esa saboq chiqaradi. Shuningdek, lider sabrli bo'lishi kerak, chunki katta natijalarga tezda emas, balki izchil mehnat orqali erishiladi.

Liderlikning yana bir muhim siri — bu to‘g‘ri motivatsiya berishdir. Lider jamoaga maqsadni tushuntiradi va ularda ishtiyoq uyg‘otadi. U insonlarni majburlamaydi, balki ularga ishonch beradi. Shu sababli jamoa lider ortidan ixtiyoriy ravishda ergashadi.

Xulosa qilib aytganda, liderlik — bu kuch yoki lavozim emas, balki mas’uliyat, ishonch va insoniy fazilatlar yig‘indisidir. Uni har bir inson o‘z ustida ishlash orqali rivojlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Robin Sharma.Muvaffaqiyatning 200 siri.Toshkent,2017
2.James Clear. Atom odatlar.2018
3.Mark Tven